

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ
ВАЗИРЛИГИ**

ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

**ПЕДАГОГИКА ФАКУЛТЕТИ
МАКТАБГАЧА ТАЪЛИМ МЕТОДИКАСИ
КАФЕДРА**

**ЭЛЕМЕНТАР МАТЕМАТИК ТАСАВВУРЛАРНИ ШАКЛЛАНТИРИШ
МЕТОДИКАСИ ФАНИДАН**

МУСТАҚИЛ ИШИ

Талаба: Чоршанбиева.Н

2015

GEOMETRIK SHAKLLAR

Mashg'ulot ishlanma

Mavzu: 1,2,3,4,5,6,7,8,9,10 raqamlari bilan tanishtirish.

Maqsad: Bolalarga tartib raqamlari to'g'risida yangi bilimlarni berish va malaka hosil qilish.

Kutilayotgan natija: Bolalar 1,2,3,4,5,6,7,8,9,10 raqamlarining hosil bo'lishi va ishlatilishini o'rganib olishi.

Kerakli jihozlar: qushlar rasmi tushurilgan plakatlar, yulduzchalar, raqmlar tushurilgan ko'rgazmali qurollar, qalamlar.

Mashg'ulotning borishi

Tarbiyachi: aziz bolajonlar bugun sizlar bilan 1 dan 10 gacha bo'lgan raqamlari bilan tanishamiz. Kelinglar doskadagi sonlarni sanaymiz

1,2,3,4,5,6,7,8,9,10

(tarbiyachi va bolalar birgalikda sanashi mumkin)

Bir, ikki, uch, to'rt, besh, olti, yeti, sakkiz, to'qqiz, o'n.

Tarbiyachi: Barakalla juda to'g'ri sanadilaringiz, hech kim xato qilmadi.

Muxlisaqizim sen doskadagi sonlarni aytchi

Muxlisa: Bir, ikki, uch, to'rt, besh, olti, yeti, sakkiz, to'qqiz, o'n.

Tarbiyachi : andi teskari sanachi

Muxlisa: o'n, to'qqiz, sakkiz, yetti, olti, besh, to'rt, uch, ikki, bir.,

Tarbiyachi: ingliz tilida one, two, three, four, five, six, seven, eight, nine, ten deb aytiladi. Qani bolajonlar inglizchasiga sanaymiz.

Bolalar: one, two, three, four, five, six, seven, eight, nine, ten

Tarbiyachi juda to'g'ri, mana bu rasmda nimalar tasvirlangan?



Bolalar: qushlar

Tarbiyachi: hamma qushlarni yaxshi ko'radimi? U ingliz tilida bird deb ataladi. (bolalarga takrorlatadi). Kelinglar ularni sanaymiz sarvinoz qizim sen qushlarni sanab berchi. Yuqorida nechta qush bor?

Bola: yuqoridagi qushlarni sanaydi. Bir, ikki uch, to'rt, besh. Yuqorida beshta qushlar bor ekan.

Tarbiyachi: endi pastki tomondagi qushlarni sanachi?

Bola: bir, ikki, uch, pastda uchta qush bor ekan

Tarbiyachi ularning hammasini birgalikda sanaymiz. Sarvinoz qizim barcha qushlarni birgalikda sanaginchi nechta qush bor ekan?

Bola: bir, ikki, uch, to'rt, besh, olti, yeti, sakkiz,

Tarbiyachi: demak jammi qushlar nechta ekan?

Bola: sakkista qush bor ekan

Tarbiyachi: beshga uchni qo'shsak nechti bo'lar ekan?

Bolalar: sakkiz bo'lar ekan.

Tarbiyachi: Manabu rasmda nimalarni ko'ryapsiz bola bilan qizoloq tasvirlangan . Ular kemachalar yasab o'ynashmoqda. Ingliz tilida kema **ship** deb ataladi. Qani bolalar takrorlaymiz.

Bolalar: ship.

Tarbiyachi:Chap tomonda nechta kemachalari borlidini sanaymiz.



Nasiba qizim sen kelib kemachalarni sanagi.

Nasiba :(tarbiyachi chap tomondagi kemachalarni ko'rsatib turishi mumkin)
bir, ikki, uch, to'rt, beshta beshta kema bor ekan.

Tarbiyachi : to'gri beshta kema bor. Endi, ong tomondagiu kemachalarni sana

Nasiba: bir ikki, uch, to'rt, tortta kemacha bor ekan

Tarbiyachi endi hammasini birgalikda sanaymiz.

Nasiba bir ikki, uch, to'rt, besh, olti, yeti, sakkiz, to'qqiz to'qqizta ekan.

Tarbiyachi: tog'ri demak barcha kemalar soni to'qqizta, 5 ga 4 ni qo'shsak 9 bo'ladi.

: Endi mana bu rasmga qarangizlar bu rasmla nimalar tasvirlangan?



Bolalar : yulduzchalar

Tarbiyachi : to'g'ri. Yulduzlar qachon chiqadilar

Bolalar : kechqurun

Tarbiyachi:. Ingliz tilida yulduz star deb ataladi. Chap tomonda nechta yulduzcha bor? Ahmad o'g'lim kel sen sanab berchi?

Ahmad: bir, ikki, uch, to'rt. Besh beshta yulduzcha bor ekan

Tarbiyachi: endi o'ng tomondagi yulduzchalarni sanachi?

Ahmad: bir, ikki, uch, to'rt, beshta


Tarbiyachi : endi chap tomondagi yulduzchalar bilan ong tomondagi yulduzchalarni qo'shin sanaymiz.

Ahmad: Bir, ikki, uch, to'rt, besh, olti, yeti, sakkiz, to'qqiz, o'n,. o'nta ekan


Tarbiyachi : to'g'ri demak 5 ga 5 ni qo'shsak nechi bo'lar ekan?

Ahmad: o'n bo'lar ekan.

Tarbiyachi : Hozir har bir stolga 10 ta doiracha berib chiqaman . doirachalarni shuntay tartib bilan joylashtirishingiz talab etiladiki ularning kattaligi ham va ularga yozilgan raqamlar ham to'g'ri tuzulishi shart. Ranglariga ham etibor bering. Hammaga tushunarli bo'ldimi?. Unda boshladik. (Bunda bolalar jamoa bo'lib ishlashga harakat qilishlari ham ko'zda tutiladi).



TARBIYACHI: (hamma jamoaning topshiriqni qanday bajarishini kuzatib turadi.) qani qaysi guruh birinchi bo'ldi. Uni tekshirib ko'ramiz.



Barakalla to'g'ri bajaribsizlar.

Mashg'ulot davomida harakatli o'yin otkazish mumkin.

Bodring teramiz o'yinini otkazish mumkin. Bunda mana bu she'rni aytib bolalar o'ynashadilar.

Bodring teramiz

Qani bolalar yuguring

Poliz to'la bodring

Dehqon boboga yordam berib

O'n savatni to'ldiring.

Bu oyinda bolalar o'rinlaridan turib, “**qani bolalar yuguring**” jumlasini aytib turgan joyida yugurish harakatini qilishdilar. “**Poliz to'la bodring**” jumlasini aytilganda ikkiala qo'llarini katta qilib oldinga ochib polizni tasvirlaydilar. “**dehqon boboga yordam berib**” jumlasini aytib dehqon boboning ketmon bilan mehnat qiloyatgan harakatini ko'rsatadi. “**o'n savatni**

to'ldirin" jumlasini aytilganda o'nta barmoqlarini oldinga ko'rsatadi . bunda bolalarning bir xil bajarishiga etibor beriladi.

Bolalarning bilimini tekshirish va mustahkamlash uchun savollar?

1.biz bugun sizlar bilan nechigacha bo'lgan raqamlar bilan tanishdik?

2.kim sanab beradi?

3. 5 ga 3 ni qo'shsak nechi bo'lar ekan?

4.5 ga 5 ni qo'shsak nechi bo'lar ekan?

5. kemachalar soni nechta ekan?

Mashg'ulot yakunida tarbiyachi bolalarni rag'batlantiradi.

